

АДАБИЁТШУНОСЛИК ВА  
ТАРЖИМАШУНОСЛИКНИНГ  
ДОЛЗАРЪ МУАММОЛАРИ: АДАБИЙ  
ЖАРАЁН, ҚИЁСИЙ АДАБИЁТШУНОСЛИК,  
УСЛУБШУНОСЛИК ВА  
ТИЛШУНОСЛИК МАСАЛАЛАРИ  
халқаро илмий-амалий анжуман материаллари

**ТЎПЛАМИ**

2022 йил 4 октябрь



**Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта  
махсус таълим вазирлиги  
Бухоро давлат университети**



**АДАБИЁТШУНОСЛИК ВА ТАРЖИМАШУНОСЛИКНИНГ  
ДОЛЗАРЪ МУАММОЛАРИ: АДАБИЙ ЖАРАЁН, ҚИЁСИЙ  
АДАБИЁТШУНОСЛИК, УСЛУБШУНОСЛИК ВА ТИЛШУНОСЛИК  
МАСАЛАЛАРИ**

**Халқаро миқёсидаги илмий-амалий анжуман  
материаллари  
ТЎПЛАМИ**

**Бухоро - 2022**

Xullas Abdulla Oripovning qaysi bir she'riga murojaat etmaylik, tabiat bilan bog'liq poetik ko'chimga duch kelamiz. Bu esa ijodkorning o'ziga xos mahorat uslubini ko'rsatadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <http://library.ziyonet.uz>  
<https://osnovaschool.ru>
3. <http://www.conferenceseries.info> bb 367-369
4. A.Oripov. Tanlangan asarlar. To'rt jildlik, t-4. – T., 2001. – B.76.
5. A.Oripov. Tanlangan asarlar. To'rt jildlik, t-4. – T., 2001. – B.84.
6. Rahimjonov N. Shoir va davr. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1983. – B. 182.
7. Aristotel. Poetika. – T.: Adabiyot va san'at, 1980

## U. SHEKSPIRNING “QIROL LIR” TRAGEDIYASIDA BOSH QAHRAMONLAR OBRAZLARINING PSIXOLOGIK TAHLILI

**Qurbonova N. R f.f.f.d (PhD)**

**Karimova Xadicha Jamshidovna**

Buxoro Davlat Universiteti

Adabiyotshunoslik (ingliz) yo`nalishi

**Annotatsiya:** Ushbu maqola jahon adabiyotining eng sara klassik asarlaridan biri bo'lgan U. Shekspirning “Qirol Lir” tragediyasi bosh qahramonlari obrazlarini psixoanalitik tahlil qiladi.

**Kalit so'zlar:** U. Shekspir, Qirol Lir, obraz, psixoanalitik tahlil, timsol.

**Abstract:** The following article briefly analyzes the psychoanalytic features of the main characters in one of the well-renowned classic plays - the tragedy “King Lear” by U. Shakespeare.

**Keywords:** U. Shakespeare, King Lear, image, psychoanalytic analysis, symbol.

"Qirol Lir", tanqidchilarning fikriga ko'ra, sahnalashtirilgandan ko'ra ko'proq o'qiladigan asardir. Asar voqealarga boy, lekin unda asosiy o'rinni qahramonlarning falsafiy mulohazalari egallaydi. Muallif tomonidan ustalik va haqiqat bilan yaratilgan har bir personaj o'ziga xos xususiyatga - ichki dunyoga ega. Har bir qahramonning o'z shaxsiy fojiasi bor. Shekspir hayotning boshqa elementlaridan ko'ra ko'proq insonning xatti-harakati, xarakter xususiyatlarini yoritish bilan shug'ullangan. Uning asosiy maqsadi insoniyatning qorong'u tomonlarini yoritish va inson tabiatining yuragiga kirib borish edi.

Asar protagonisti qirol Lir birinchi sahnalarda kuchli va o'ziga ishongan qirol sifatida gavdalanadi. Biroq, shu bilan birga, u xudbin va ko'r, shuning uchun u tojini, kuchini, hurmatini va o'z farzandlarini yo'qotadi. Uning aqli aqldan ozgan paytda haqiqatni imkon qadar anglaydi. Qirol Lirning mag'rurligi va takabburligi, haqiqatni ko'ra olmasligi, shoshqaloqligi va qat'iy qarorlarga moyilligi fojiali tanbehga olib keladi.

Kopeliya Kanning "The Absent Mother in King Lear" asarida keltirilgan psixoanalitik tahliliga ko'ra, Qirol Lir qizlaridan uni maqtashlarini so'rashi uning ona mehri tashnaligini anglatadi.

**KING LEAR:**     *Which of you shall we say doth love us most?  
That we our largest bounty may extend  
Where nature doth with merit challenge.*

Onasidan yetarlicha mehr ko'rmagan Lir ushbu mehri qizlaridan talab qilganida, kenja qizining bu taklifni rad etishi qirol uchun haqiqiy hissiy zarba bo'lgan edi. Kordeliyaning o'limigina qirolni o'z fantaziyalaridan xalos etadi.

**KING LEAR:**     *Here I disclaim all my paternal care,  
Propinquity, and property of blood,  
And as a stranger to my heart and me  
Hold thee from this forever.*

Psixoanaliz asoschisi Zigmund Freyd esa o'zining "The Theme of the Three Caskets" asarida "Qirol Lir" tragediyasini tahlil qilar ekan, Kordeliya obrazini o'lim ramzi, deya tasvirlaydi. Shunday ekan, Lirning o'z qiziga bo'lgan munosabati uning o'limga bo'lgan munosabatini ifodalaydi, u o'limni tan olishni istamaydi. Qirol umrning foniy ekanini qabul qila olmaydi. Asarning so'nggi qayg'uli sahnalarida Kordeliyaning halok bo'lishi Freyd uchun muhim nuqta edi, chunki o'sha nuqtadagina qirol o'zining umrboqiy emasligini tushunib yetib, o'limning muqarrarligi to'g'risidagi fikr bilan murosa o'rnatadi. Kordeliyani o'limga mahkum etish uchun Shekspirda ma'lum bir sabablar bo'lgani ehtimoldan yiroq emas, chunki "Qirol Lir" pyesalarining boshqa hech bir variantida uning o'limi uchramaydi.

*KING LEAR: Howl, howl, howl, howl! O, you are men of stones:*

*Had I your tongues and eyes, I'd use them so  
That heaven's vault should crack. She's gone for ever!  
I know when one is dead, and when one lives;*

Psixolog Harol Blum esa asosiy e'tiborini Edmund obraziga qaratadi. Unga ko'ra, "Edmund — Shekspirning eng original qahramonidir". Edmund boshqa salbiy obrazlar kabi munofiqlik qilmaydi va undagi hiylakorlik faqat va faqat aql yo'rig'iga ko'ra harakatlanadi. Unda hech qanday ishtiyoq va hissiyot mavjud emas, u hech kimni sevmagan va sevmaydi ham. Shu jihatdan olib qaraganda, bu Shekspirning takrorlanmas qahramonidir.

*EDMUND: For that I am some twelve or fourteen moon-shines  
Lag of a brother? Why bastard? wherefore base?  
When my dimensions are as well compact,  
My mind as generous, and my shape as true,  
As honest madam's issue?*

Edmundning xatti-harakati uchun o'zini ikkinchi darajali his qilgan va har qanday yo'l bilan jamiyatda mavqega ega bo'lishga harakat qilgan o'g'il kontseptsiyasining noqonuniyligi sabab bo'ladi.

Blum fikriga ko'ra, Lir ma'lum bir darajada "hech narsa" ga kirib qolgan, tragediyada "nothing" so'zining o'ttiz to'rt marta ishlatilgani ham bir misoldir. Lir o'zining shiddatli tuyg'ulari: g'azab, nafrat, qayg'u orqali o'zining borligini qizlariga ko'rsatishga urinsada, u hech kimga aylanib qolgan edi.

*KING LEAR: Nothing will come of nothing. Speak again!*

*FOOL: Can you make use of nothing, nuncle?*

*LEAR: Why, no, boy, nothing can be made out of nothing.*

Xulosa sifatida shuni ta'kidlash joizki, psixoanalitik tahlil Shekspirning "Qirol Lir" tragediyasini yanada chuqurroq tushunish imkonini yaratadi. Tragediya inson tabiatidagi ziddiyatlar bilan bir qatorda aql va qalb yo'li o'rtasidagi tafovut haqidadir. Bu qarama-qarshiliklar insonni fojia sari yetaklaydi. Lir qalbi xasta obraz bo'lsa, Edmund "aqliy xasta" qahramon edi. Ushbu maqolada bosh obrazlarni fojia sari yetaklagan ichki qarama-qarshiliklarni psixologik tahlil etildi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. U. Shakespeare. King Lear. [www.shakespeare.folger.edu](http://www.shakespeare.folger.edu).
2. Coppelia Kahn. *The Absent Mother in King Lear*. 1986, reprinted in Kiernan Ryan ed. King Lear: Contemporary Critical Essays, 1993.
3. Sigmund Freud. The Theme of the Three Caskets. 1913
4. Harold bloom. *Lear: The Great Image of Authority*. Scribner, 2018.
5. [www.shakespeare-online.com](http://www.shakespeare-online.com)

## МУНДАРИЖА

Зарипов Ботир Комилович. Маънавият масаласи – муҳим масала.....	3
Ҳамраев Мирали Муҳаммеджанович. Ўзбек тилининг давлат тили мақомини ошириш йўлида.....	5
Обиджон Хафизович Хамидов. Она тили – миллат руҳи .....	6

### **I ШЎЪБА. XXI АСР ИНГЛИЗ ВА АМЕРИКА АДАБИЁТИ. АДАБИЁТ, САНЪАТ ВА ЗАМОН. ҚИЁСИЙ АДАБИЁТШУНОСЛИК ВА ТАРЖИМАШУНОСЛИКНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ.....**

Assem S. Seitkhadyrova. THE ROLE OF BILINGUALISM IN TRANSLATION AND INTERPRETATION.....	9
Ҳажиева Феруза Мэлсовна. МАЙКЛ КАННИНГҲЕМНИНГ “СОАТЛАР” АСАРИДА РАМЗИЙ ДЕТАЛЬ ТАЛҚИНИ .....	12
Каримова Шахнозахон Каримовна. ЗАМОНАВИЙ ЎЗБЕК ШЕЪРИЯТИДА ЭЛЛИПСИСНИНГ БАДИИЙ ВАЗИФАЛАРИ.....	15
Раджабова Дилдора Рахимовна. АДАБИЁТШУНОСЛИҚДА ТАРИХИЙ РОМАН ГЕНЕЗИСИ .....	17
<i>М.К.Бақоева.</i> Байроннинг “Видо” (“Fare Thee Well”) шеъри таржимаси - ўзбек таржимачилининг ўтмишдаги муваффақиятларидан намуна .....	19
Ochilov Nodirbek Sayfulloyevich. Oscar Wilde, as a leader of aesthetic movement in english literature .....	22
Safoeva Sadokat Nasilloevna. "THE ISSUE OF LITERARY INFLUENCE AND IDEOLOGICAL-ARTISTIC COMMONALITY (BASED ON THE SOCIOLOGICAL RESEARCH OF ABDULLA QADIRI'S "MEHROBDAN CHAYON" AND "PRIDE AND PREJUDICE" BY JANE AUSTEN)" .....	24
Shahnoza Sodikova. SHARLOTTA BRONTE VIKTORIYA DAVRI YOZUVCHILARI VAKILI SIFATIDA.....	27
Kamolova Feruza Komilovna, Akhmedova Mehrinigor Bahodirovna. FEMINISTIC FEATURES OF “ NIGHTS AT THE CIRCUS” BY ANGELA CARTER.....	29
O.X.Ganiyeva, Sh.B.Xodjayeva. ERNEST ХЕМИНГВЕЙНИНГ “NOBODY EVER DIES” НИКОУСИ БАДИИЙ ХУСУСИЯТЛАРИ .....	32
Икрамова Азиза Аминовна. ТОМАС ЭЛИОТНИНГ “САРДОБАДАГИ ҚОТИЛЛИК” АСАРИДА ОБРАЗЛАР ТАЛҚИНИ. ....	34
Rakhimova O'g'ilo'y Akbarovna, Akhmedova Mehrinigor Bahodirovna. JANE EYRE AND WIDE SARGASSO SEA'S TREATMENT OF FEMINISM AND ITS REFLECTION IN CHARACTER ANALYSIS.....	37
Bakhshanda Olimovna Davronova, Gulbakhor Pirmanovna Nazarova. DEMONSTRATION OF RACISM DILLEMA IN “WHITE TEETH” BY ZADIE SMITH .....	40
G.P. Nazarova, S. Ro'ziyeva. DAVID MITCHELL ASARLARIDA POSMODERN ADABIYOT ХУСУСИЯТЛАРИНИНГ АКС ЕТТИРИЛИШИ.....	42
G.P. Nazarova, Sh. Rakhmatova. ЕКОФЕМИНИЗМ ВА ЕКОФЕМИНИСТИК ҚАРАШЛАРИНИНГ ПАЙДО БО'ЛИШ ОМИЛЛАРИ ВА АДАБИЙОТДАГИ О'РНИ.....	44
Xasanova Muborak Tashpulatovna. ABDULLA ORIPOV SHE'RIYATIDA METAFORANING QO'LLANILISHI .....	46
Qurbonova N. R., Karimova Xadicha Jamshidovna. U. SHEKSPIRNING “QIROL LIR” TRAGEDIYASIDA BOSH QAHRAMONLAR OBRAZLARINING PSIXOLOGIK TAHLILI.....	48
Qodirova Aziza Xayrillo'yevna. LAKUNALARINING TARJIMADA AKS ETISHI.....	50